

## MIOKARD INFARKTI: ERTA TASHXIS VA SHOSHILINCH YORDAM CHORALARI

**Boymurodov Xo'jamurod**

**Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash yo'nalishi, 3-kurs talabasi**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17305359>

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada yurak mushagining o'tkir ishemik shikastlanishi — miokard infarkti haqida so'z yuritiladi. Uning kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi (patogenezi), erta tashxis usullari va shoshilinch tibbiy yordam choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kasallikni oldini olish, zamonaviy davo yondashuvlari va profilaktikaning ahamiyati ham yoritilgan. Maqsad — yurak infarktini erta aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatishning hayot uchun naqadar muhimligini tushuntirishdir.

**Kalit so'zlar:** Miokard infarkti, ishemiya, EKG, tromboz, koronaroqim, shoshilinch yordam, nitroglitserin, reperfuziya, fibrinoliz.

**Kirish:** Yurak inson hayotining markaziy organi bo'lib, organizmdagi barcha hujayralarga kislorod va oziqa moddalari yetkazib berishda ishtirok etadi. Yurak mushagiga qon yetib bormasa, u ishemiyaga uchraydi. Agar bu holat uzoq davom etsa, yurak mushagining bir qismi nobud bo'ladi — bu holat miokard infarkti deyiladi. Miokard infarkti (MI) — bu yurak mushagining o'tkir nekrozi bo'lib, asosan koronar tomirlar trombozi yoki aterosklerotik blyashka yorilishi natijasida yuzaga keladi. Dunyo miqyosida yurak-tomir kasalliklari ichida eng ko'p o'linga sabab bo'layotgan kasallik ham aynan shu — miokard infarktidir.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 18 milliondan ortiq kishi yurak-tomir kasalliklari oqibatida vafot etadi. Shulardan taxminan 30–40% holat miokard infarktiga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu mavzu tibbiyot talabalari uchun ham, amaliy shifokorlar uchun ham nihoyatda muhimdir.

**Asosiy qism:** Miokard infarktining asosiy sababi — koronar arteriyalar orqali yurak mushagiga qon oqimining to'satdan to'xtashidir. Bu quyidagi holatlar natijasida yuz beradi:

1. Ateroskleroz — koronar tomir devorlarida yog' (xolesterin) to'planishi.
2. Tromboz — tomir ichida qon quyqasi hosil bo'lishi.
3. Spazm (torayish) — koronar arteriyalarning to'satdan torayishi.
4. Arterial gipertenziya — yuqori qon bosimi yurak yuklamasini oshiradi.
5. Stress va jismoniy ortiqcha yuklama.
6. Chekish, semizlik, diabet, kam harakatlilik — xavf omillari.

Miokard infarkti bosqichma-bosqich rivojlanadi: Aterosklerotik blyashka yorilishi → Qon quyqasi (tromb) hosil bo'lishi → Koronar oqim to'silishi → Yurak mushagi kislorodsiz qoladi (ishemiya) → Mushak hujayralari nobud bo'ladi (nekroz) → Yurak qisqarish qobiliyati pasayadi, yurak yetishmovchiligi yoki aritmiyalar paydo bo'ladi. Infarkt joyi odatda chap qorinchada, ayniqsa old devorda ko'proq uchraydi, chunki bu qism yuklamasi eng katta bo'ladi.

Miokard infarktining asosiy belgisi — ko'krak sohasida og'riq. Ammo bu og'riq oddiy yurak og'rig'idan (stenokardiyadan) kuchliroq va uzoqroq davom etadi. Asosiy alomatlar: Ko'krakda siqilish, ezilish, yonish hissi. Og'riq 20 daqiqadan ko'p davom etadi. Og'riq chap yelka, qo'l, bo'yin yoki jag'ga tarqaladi. Sovuq ter bosadi, qo'rquv, o'lim hissi paydo bo'ladi. Nafas qisadi, yurak urishi tezlashadi. Ba'zida og'riqsiz (yashirin) infarkt ham uchraydi — ayniqsa diabetik bemorlarda

Miokard infarktining turlari

1. ST segmenti ko'tarilgan infarkt (STEMI) – to'liq koronar to'siq, keng soha shikastlanadi.
2. ST segmenti ko'tarilmagan infarkt (NSTEMI) – qisman to'siq, cheklangan nekroz

o'chog'i.

3. O'tkir, qaytalanuvchi, kechki infarkt – kechishiga qarab farqlanadi.

Miokard infarktini erta aniqlash — hayotni saqlab qolishning asosiy omili. Shuning uchun shifokor quyidagi bosqichlarda tashxis qo'yadi:

A) Klinik tashxis

-Og'riqning xarakteri, davomiyligi va joyi aniqlanadi.

-Bemorning avvalgi yurak kasalliklari o'rganiladi.

B) Elektrokardiografiya (EKG)

Eng muhim usul.

-ST segmentining ko'tarilishi, T tishchasining inversiyasi yoki patologik Q to'lqini kuzatiladi.

-Infarktning joyi va bosqichini aniqlashda yordam beradi.

C) Laborator tahlillar

-Troponin I va T darajasi oshadi — yurak mushagi zararlanganining eng sezgir belgisi.

-Kreatinfosfokinaza (CK-MB), LDH fermentlari ham oshadi.

D) Vizualizatsiya

-Echokardiyografiya (EKO) — yurak qisqarish kuchini baholaydi.

-Koronar angiografiya — tomirning qayerda to'silib qolganini aniq ko'rsatadi.

Miokard infarktida vaqt — eng muhim omil! Har bir daqiqa yurak mushagining tirik qolgan qismini saqlab qoladi.

1. Shoshilinch choralar (birinchi yordam).Bemorni yotqizish yoki yarim o'tirgan holatga keltirish. Kislorod berish (agar mavjud bo'lsa). Og'riqni kamaytirish uchun nitroglitserin til ostiga (har 5 daqiqada, 3 martagacha). Aspirin (300 mg) chaynaladi – qon quyqalarini kamaytiradi. Shoshilinch ravishda tez yordam chaqirish!

2. Kasalxonada shoshilinch yordam. Reperfuzion davo — to'silib qolgan koronar tomirni ochish: Trombolitik terapiya (streptokinaza, alteplaza). Perkutan koronar intervensiya (stent o'rnatish). Og'riqni bartaraf etish — morfin yoki analgetiklar. Antikoagulyantlar (heparin) — yangi tromb hosil bo'lishini to'xtatadi.. Beta-blokatorlar, ACE ingibitorlari, statinlar — yurak yuklamasini kamaytiradi, qaytalanishning oldini oladi.

Agar infarkt o'z vaqtida davolanmasa, quyidagi og'ir asoratlarda rivojlanadi: Yurak yetishmovchiligi, aritmiyalar (ayniqsa fibrillyatsiya), yurak devorining yorilishi, tromboemboliyalar, kardiogen shok, o'lim.

Miokard infarktidan keyingi hayotda bemorlar quyidagi tavsiyalarga qat'iy amal qilishi lozim:

-Chekish va spirtli ichimliklardan butunlay voz kechish

-Yurak sog'lig'i uchun parhez: yog', tuz, qand miqdorini kamaytirish

-Kunlik yurish mashqlari (shifokor tavsiyasiga binoan)

-Dori vositalarini muntazam qabul qilish

-Qon bosimi va xolesterin darajasini doimiy nazorat qilish

-Stressdan saqlanish, yetarli uyqu

Profilaktika har doim davodan yaxshiroq. Sog'lom turmush tarzi yurak infarktining oldini olishda eng samarali yo'ldir.

**Xulosa:** Miokard infarkti — yurak mushagining hayot uchun xavfli o'tkir shikastlanishidir. Kasallikni erta aniqlash, tezkor tibbiy yordam ko'rsatish va zamonaviy davolash usullarini qo'llash orqali minglab hayotlarni saqlab qolish mumkin. Har bir tibbiyot xodimi infarkt alomatlarini tezda aniqlashni, shoshilinch yordam ko'rsatish ketma-ketligini bilishi shart. Shuningdek, aholining yurak sog'lig'iga e'tiborini oshirish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish infarkt ko'rsatkichlarini sezilarli kamaytiradi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'.O. Jo'rayev, "Kardiologiya asoslari", Toshkent, 2020.
2. N.A. Abdurahmonov, "Ichki kasalliklar propedevtikasi", Toshkent, 2019.
3. M.T. Tursunov, "Yurak-tomir tizimi kasalliklari", O'zbekiston tibbiyot nashriyoti, 2021.
4. Sh. Karimova, "Farmakologiya", Toshkent, 2022.
5. WHO Cardiovascular Diseases Report, 2023.
6. Braunvald E., "Heart Disease", 2021.